

O'ZBEKISTONDA ARXIV ISHI TARIXI VA BUGUNI

<https://doi.org/10.2689/zenodo.18312588>

Panayeva Nazokat Ozotovna

Toshkent Gumanitar Fanlari Universiteti Arxiv Bo'limi Boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda arxiv ishi tarixi: tarixiy arxivhujjatlarining shakllanishi, ularning tillari, yozuv turlari, xususan XIX-XX asr arxivshunosligi, tarixiy arxiv hujjatlarining tilliligiga bo'lgan sabab va o'rnining hujjatshunoslikdagi mavqei bevosita e'tiborga olingan.

Shuningdek, bu tarixiy hujjatlarning tadqiqot metodologiyasi to'g'risida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonda bugungi arxivshunoslik sohasida yanada chuqurroq tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar

arxiv hujjati, arxivshunoslik, tillar, yozuvlar tili, manbashunoslik, tadqiqot, tarix.

Kirish. O'zbekistonda arxiv ishining shakllanishi va ilk arxivlarning paydo bo'lishi va bevosita uning uch ming yillik davlatchilik tarixi bilan bog'liq.

Yozuvning paydo bo'lishi asta sekinlik bilan arxiv ishi shakllanishiga ham olib keldi. Tadqiqotchilarning fikrga ko'ra, arxivning shakllanishiga talablarning o'sishi, ya'ni davlat boshqaruvchilar bilan bir qatorda mahalliy aholining axborotni to'laqonli qayd etilishi va uzatilishi, keyinchlik imkoniyatlardan kelib chiqib, uning asl holatini tiklashga bo'lgan ehtiyojlari katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyoning arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi va arabografik yozuv tizimiga o'tgandandan so'ng davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish sharoitida an'anaviy saroy, diniy va shaxsiy arxivlar bir qatorda idoralarda -devonlar, kutubxonalar va madrasalarda ham hujjatni jamlash va saqlash rivojlangan.

Bugungi kungacha saqlanib qolgan O'rta Osiyo hukmdorlari arxiv hujjatlari asosan ma'lum mukofotlar berish to'g'risidagi ma'lumotlar soliqlar

yig'ish to'g'risidagi yozuvlar, soliqlarni to'lash to'g'risidagi to'lov qog'ozlari, iqtisodiy tushdagi turli xil yo'zishmalar va hujjatlar husxalari yoki boshqa ma'lumotlar mavjud.

Hukmdorlarning devonxonalarda ularning faoliyatini o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi hujjatlar mavjud edi. Shu bilan birga Xiva xonligi davrida, Buxoroda

bo'lgani kabi, ish yuritish va hujjatni saqlash bilan bevosita bogliq bo'lgan devonbeg, parvonachi, kitobdor, shotir kabi lavozimlar faoliyat ko'rsatar edi.

Arxivlarda saqlangan hujjatlar zamonlar o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Agar dastlab arxiv hujjatlar bevosita xo'jalik va ijtimoiy hayotni yo'lga solish uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik ular tarixiy jarayonni o'rganish uchun yozma manbalar sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilk yozma hujjatli manbalar guruhiga qadimgi Parfiya arxivi, qadimgi Xorazmdagi Tuproqqal'a arxivi, qadimgi So'g'd yozuvlari kiradi.

Arxivni zamonaviy ma'noda, unda O'rta Osiyoda mutaxassislar bilan ishlaydigan alohida, maxsus bo'lim sifatida tashkil etish g'oyasi faqatgina X IX asr oxirida shakllangan. Shunday qilib, 1870 yil-dan boshlab viloyat kengashlari qoshida maxsus idoraviy arxivlar tashkil etildi.

Mintaqada yaqin tarixiy davrning (I X - XX asr boshi, 1920 yilgacha) o'z ichiga olgan fondlar ichidan 150 ga yaqini asosan arab alifbosida yozilgan hujjatlardan tashkil topgan. Ushbu arab alifbosida yozilgan fond hujjatlarining tili esa arab, fors-tojik va eski o'zbek (chig'atoy) tiliga mansubdir. Bular yozilgan hududlar esa Buxoro amirligi, Xiva, Qo'qon xonliklari hamda 19 - asrning ikkinchi yarimida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan, so'ng yangi Turkiston o'lkasi nomi bilan atalgan hududning uchta viloyati Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo hamda Toshkent shahar va Toshkent uezdi hududlarida faoliyat olib borgan qozilarning fondlaridan tashkil topgan fond hujjatlaridir. XIX asrda Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy jarayonlar jamiyat hayotiga oid tarixiy hujjatlar va ma'lumotlar aks ettiruvchi manbalar turining yanada boyishiga olib keldi.

Yozma manbalar turi kengayib, toshbosma kitoblar, davriy matbuot, arxiv hujjatlari, kartagrafik tasvirlar, qayd daftarlari kabi hujjatlar turkumi yaratildi. Bu esa aynan shu davrga kelib, tarixiy izlanishlar olib borish ishtiyoqida bo'lgan tadqiqotchilar ommaviy kutubxonalar, muzeylar va davlat arxivlari kabi muassasalar ochish va ularni manbalar bilan boyitish yo'lida xizmat qildilar.

Bugungi kunda Ozbekiston fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston milliy arxivi va O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi kabi respublikadagi yirik ilmiy maskanlarda, viloyat muzeyi, kutubxona, arxiv va boshqa fondlar XIX-XX boshi tarixini aks ettiruvchi manbalar mujassamlashgan.

Tarixiy manba turlarining ko'payib borishi bilan manbashunoslik yo'nalishlari ham kengayib, XX asrning 30-yillaridan Markaziy Osiyo tarixini yo'rituvchi sharq tillaridagi manbalar va arxiv hujjatlarini o'rganish masalasi ko'tarildi.

Arab imlosidagi arxiv hujjatlarining ocholishi bilan yangi mahalliy manbalar o'rganish faollashdi.

Qozilik hujjatlarini tadqiq etishni I.Uzakson va I. Pervishevlar boshlab berdilar. Jumladan, I.Uzakson 1990- yilda Toshkent Markaziy tarix arxivi (hozirda O'zbekiston milliy arxivi) saqlorida qabul qilingan qozilik hujjatlarining to'liq tavsifini berish bilan birga, tadqiqotchilarni ulardan foydalanishga chaqirgan. I.Pervishev esa mahalliy tilda yozilgan hujjatlarni o'rganish masalasini ko'targan.

1937-yilda taraqqiyparvar shoir A.Fitrat pus olimi B.Sergeev bilan hamjuxatlikda XVI asrga oid Samarqand qozikaloniga tegishli 735 ta qozilik hujjatlarini aniqlab, ilk bor hujjatlar to'plamini nashr etganlar.

Mazkur holat islom qonunchiligi talablari asosida yaratilgan qozilik hujjatlarini ilmiy muomilaga kiritish jarayonini jadallashtirdi.

Qozixonalarda rasmiylashtirilgan « vasiqa » turdagi notarial hujjatlar alohida to'plam yoki katalog shaklidagi hujjatlarning birlamchi sharoitlari nashr etildi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan akademik nashrlar: tarixiy arxiv hujjatlari, qozilik hujjatlari manbashunosligi rivojlanib kelayotgan va yangi tadqiqotlarga mavzu bo'la oladigan istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday tadqiqotlar tarixiy hujjatlarni mazmunan tahlil etish, tizimlashtirish, turli jamg'armadagi hujjatlar monitoringini yaratish, o'zaro qiyoslash orqali yangi ma'lumotlarni aniqlash, ularning manbaviy ahamiyatini taqqoslash va shu orqali islomshunoslik, manbashunoslik va tarix fanlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Nazariy manbashunoslikda tadqiqotchilar asosini tashkil etuvchi turli xil manbalarni tanqidiy tahlil etishda tarixiy voqealarning aks etishi, hujjatlarni tuzishda ko'zlangan maqsad, uning yaratilish tarixi, muallifning ma'lumotlarni yoritishdagi sub'yektiv qarashlarni aniqlash muhim sanaladi.

Shu o'rinda Buxoro amirligi tarixiy hujjatlarini o'rganish, ularni nashr etish bo'yicha tajribali mutaxassis B. Kazakov tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarni alohida qayd etish lozim. Muallif o'z ishida shaxslarga tegishli uridik hujjatlarni ijtimoiy funksiyasiga ko'ra 8 ta turga ajratadi.

- 1) Vasiqai bayi bot (oldi -sotdi hujjati) ;
- 2) Xatti ijara;
- 3) Vasiqai baxshish;
- 4) Vasiqai bayi joiz;
- 5) Xatti nikoh;
- 6) Vaqfnoma;
- 7) Vasiyatnoma;
- 8) Xatti ibro;

Muallif har bir hujjatning tarkibiy tuzilishi, tarixi va maqsadini aniqlash borasida nazariy usullarni bayon etgan.

Ayrim hollarda tarixiy arxiv hujjatlarda yozilgan vaqtni, shuningdek, qozini ism- sharifini birdan aniqlab bo'lmaydi. Odatda hujjatning so'ngi qismida uning sanasi va qozining ismi qayd etiladi.

Arab alifbosidan tashqari qisman ozchilikni tashkil etuvchi tarixiy arxiv hujjatlari kirilcha, xitotcha, lotincha, uyg'urcha va yaponcha yozuv turiga mansubdir. Ushbu yozuv turdagi hujjat tillariga quyudagilar kiradi: rus, ingliz, mo'g'ul, nemis, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, uyg'ur, xitoy, fors, fransuz, hind va yapon tili.

Ushbu turdagi tarixiy hujjatlar tilining kelib chiqish xususiyatlari aynan 19-asrning 2 chi yarimiga kelib Rossiya imperiyasining o'lkani bosib olishi bilan baholanadi.

Zero, bosib olingan hudud fuqorolarining xorijsa chiqishi yoki kirishi cheklanishi va maxsus ruxsat bilan amalga oshirilishi natijasida pasport tizimi joriy qilingan va ana shu siyosiy o'zgarish natijasida hujjatlar tilidagi qarama - qarshilik yuzaga chiqqan.

Shu sababdan ham Milliy arxivda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar ichidan pasport tizimiga oid hujjatlar o'rganilganda bu kabi tillarni uchratish ko'p yuzaga keladi. Masalan: 1870-1917yillar mobaynida Turkiston general gubernatori kanselyariyasi yoki boshqarmalariga murojat qilgan AQSh, Avstriya, Germaniya, Finlyandiya, Fransiya, Polsha, Shveysariya, Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston kabi fuqorolarning yozilmalariga doir hujjatlar ayni tarixiy arxiv hujjatlar orasida turli yozuv va turli tillarda yozilgani bilan arxiv ishi sohasi yoki o'lkaning tarixini yorituvchi tadqiqotchilar uchun alohida qimmatli hujjatlar va manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tarixiy arxiv hujjatlari manbashunoslik tadqiqotlarning nisbatan yangi va yosh yo'nalish bo'lib, uni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjud.

Shu bilan birga, bir qator ilmiy bazifalar o'z echimini kutmoqda. Bu hujjatlarning turli fanlararo qiyosiy tahlil etilishi nafaqat arxiv ishi sohasi rivoji uchun, balki O'zbekiston tarixini o'rganishda ilmiy axamiyat kasr etadi.

O'zbekistonda bugungi kunda davlat arxivlarida arxiv ma'lumotlarini berishning elektron shaklga o'tkazilishi, alohida qimmatli arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo'yicha ishlar qator qonun va qarorlar asosida amalga oshirilyapti.

Bu kabi xayrli amallar nodavlat tashkilot arxivlarida ham amalga oshirilishini, bu sohadagi islohotlar davomli bo'lishiga ishonib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Исаксон М. Национальные фонды центрального архива УзССР в Ташкенте. // библиография. Востока - Ленинград, 1932 - № 1 - с. 55 -72.
2. Первышев И. О. документальной базе для историографии феодальной формации в Средней Азии // революция и культура в Средней Азии. Сборник первый - Ташкент, 1934 - с. 106 - 111.
3. Фитрат Р.Р. Сергеев Б. Казийский документы XVI века . Ташкент: комитет наука УзССР, 1937 - с. 80.
4. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. - Ташкент : Узбекистан, 1987 - с. 25.
5. INFOL IB axborot kutubxona jurnali.
6. « O'zbekiston arxiv xizmati 100 yoshda» kitob albomidan.
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi « O'z. arxiv» agentligi.